



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinova	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan refleksiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifatni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlilik misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	

Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'raboyeva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	



BO'LAJAK TARBIYACHILARDA O'QUV-BILUV FAOLIYATI MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK AHAMIYATI

Muhammadiyeva Manzura Maratovna

Qarshi davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim kafedrası dotsenti, p.f.f.d.

Musulmonova Sabrina Akmal qizi

Qarshi davlat universiteti, Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Globallashuv sharoitida bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati nazariy va ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Motivatsiyaning ta'lim jarayonidagi o'rni, uning bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, bilimlarni samarali egallash hamda faoliyat samaradorligini oshirishga ta'siri asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: motiv, motivatsiya, shaxs, ta'lim, faoliyat, jarayon, maqsad, tarbiyachi, samaradorlik, rivojlanish.

Abstract: The paper provides a theoretical and scientific analysis of the pedagogical significance of developing motivation for learning activity among future educators in the context of globalization. The role of motivation in the educational process, its influence on the formation of professional competencies, effective knowledge acquisition, and increased performance is substantiated.

Key words: motive, motivation, personality, education, activity, process, goal, educator, efficiency, development.

Аннотация: Рассматриваются теоретические и научные основы педагогического значения развития мотивации учебно-познавательной деятельности у будущих воспитателей в условиях глобализации. Обоснована роль мотивации в образовательном процессе, её влияние на формирование профессиональных компетенций будущих специалистов, эффективное усвоение знаний и повышение результативности деятельности.

Ключевые слова: мотив, мотивация, личность, образование, деятельность, процесс, цель, воспитатель, эффективность, развитие.

KIRISH

Dunyoda yuzaga kelgan qator tendensiyalar ta'lim-tarbiya jarayonining, xususan, maktabgacha ta'lim sohasi rivojlanishining o'zgacha tus olishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekistonda ta'lim taraqqiyotiga bo'lgan e'tibor yuksak darajada rivojlanayotgan bugungi zamonda maktabgacha ta'lim sohasida ham tub burilishlar davri yuzaga kelishiga asos bo'ldi. Maktabgacha yosh davri inson tafakkuri shakllanishidagi eng muhim bosqich sifatida olimlar tomonidan aniq dalillarga asoslanib e'tirof etilganligi bois, ushbu yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning barchasi barkamol va intellektual rivojlangan, eng muhimi, hayot sinovlarida o'z maqsadi va mustahkam pozitsiyasiga ega bo'lgan kelajak avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iboratdir. "Yoshlikda o'rganilgan bilim toshga o'yilgan naqsh kabi", deyilgan xalqimizning purma'no maqoli bejiz emas. Bolalarning har tomonlama yuksak ma'naviyatli shaxs sifatida kamol topishida, albatta, tarbiyachi-pedagoglarning o'rni va ahamiyati kattadir. Shuning uchun bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiyaviy faoliyatga kirib borishida ularning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish muhim masala sanaladi. Bu borada bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirish, ularda o'z sohasining eng ilg'or tajribalarini shakllantirish davr talabiga aylandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHAHRI

Shaxsning motivatsion sohasini o'rganishning o'ziga xosligi shundaki, so'nggi paytlarda psixologlar (K.A. Abulxanova-Slavskaya, E.P. Ilyin, V.G. Leontiev, A.K. Markova, V.D. Shadrikov va boshqalar) o'rtasida xulq-atvor va shaxs faoliyati motivatsiyasiga qiziqish kuchayganiga qaramay, hozirgi kunga qadar ushbu



hodisaning psixologik tabiati masalasi munozarali masalalardan biri bo'lib qolmoqda va chuqur nazariy hamda uslubiy o'rganishni talab qilmoqda. Shaxsning ehtiyoj-motivatsion sohasi qadimgi yunon falsafasi davridan to hozirgi davrgacha (Aristotel, I. Kant, N.A. Berdyaev, R. Dekart, M. Monten, Platon, G. Riker), empirik psixologiya (K. Byuler, E. Torndik, E. Spranger, Z. Freyd, K. Levin), rus psixologiyasi tarixi (P.K. Anoxin, P.P. Blonskiy, L.I. Bojovich, L.S. Vygotskiy, K.N. Kornilov, P.F. Kapterev, V.S. Merlin, I.I. Pirogov va boshqalar) doirasida keng o'rganilgan. Mahalliy va xorijiy psixologiyada "shaxsning motivatsion sohasi" toifasi shaxs kontekstida ko'pchilik tomonidan ko'rib chiqilgan.

Motivlarni shaxs munosabatlari nuqtai nazaridan o'rganishda V.N. Myasishchev ularni shaxsiy munosabatlar sifatida tahlil qilgan. A.G. Kovalyov motivlarni shaxs ehtiyojlari bilan bog'liq holda tekshiradi.

Faoliyat aspektida motivatsiyani V.D. Shadrikov faoliyatning psixologik funksional tizimi modeli bilan bog'laydi va uning kasbiy tayyorgarlikdagi rolini ko'rsatadi.

Ijodiy faoliyat motivlari ham o'rganilib, ijodiy ish motivatsiyasini tahlil qilgan B.A. Frolov ichki va tashqi motivatsiyani ajratadi. Birinchisi rivojlanayotgan tadqiqot mavzusiga qiziqish bilan, ikkinchisi esa yuqori natijalarga erishish, mukofot olish, muvaffaqiyatga erishish va hokazolar bilan bog'liq.

Motivatsiya nazariyasining rivojlanishiga rus psixologlari P.K. Anoxin, N.A. Bernshteyn, A.N. Leontiev, B.F. Lomov, R.S. Nemov, E.P. Ilyin va boshqalarning fikriga ko'ra, motivatsiya harakatning maqsadga muvofiqligi, aniq maqsadga erishishga qaratilgan yaxlit faoliyatning tashkil etilishi va barqarorligini tushuntiradi.

Amaliy tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, insonning motivatsion sohasi dinamik xarakterga ega. Talaba shaxsining motivatsion sohasini shakllantirish, uning yetarli psixologik ta'sir vositalari sharoitida rivojlanishi psixologik omillarning maqsadli ta'siri orqali amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagog olimlar tomonidan olib borilgan qator didaktik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradigan o'qitish omillari ichida o'quv-biluv faoliyatiga motivlashtirish omili birinchi o'rinda turadi, ya'ni ta'lim samaradorligi 92 % o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishga bog'liqdir. Inson tabiatini ozgina bo'lsa-da tushunadigan kishi buning bejiz emasligini e'tirof etadi. Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi.

Mazkur tadqiqot bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning didaktik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogika, psixologiya hamda didaktika sohalaridagi ilmiy yondashuvlarga tayanildi. Tadqiqot jarayonida muammoning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganish maqsadida bir qator ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini pedagogika va ta'lim jarayonida motivatsiya muammosiga oid ilmiy manbalar, ilmiy maqolalar, monografiyalar hamda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili tashkil etadi. Ushbu bosqichda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umimlashtirish hamda tizimlashtirish metodlari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ta'lim jarayonida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini motivlashtirishda o'qituvchi juda muhim o'rin egallaydi. Chunki u ta'lim jarayonini tashkil etuvchi va boshqaruvchi subyekt sifatida talabalarning o'quv-biluv faoliyatini ham bevosita boshqarib boradi.

Ta'lim jarayonida bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyatini boshqarish va motivlashtirish juda ko'p omillarga bog'liq. Shunday muhim omillardan biri pedagogning o'z predmetini qiziqarli qilib yetkaza olishidir. Zero, qiziqish barcha psixik jarayonlar (idrok, diqqat, xotira, tafakkur, iroda)ning kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. "Talabani tarbiyalash va ta'lim berish jarayonida o'quv qiziqishi ko'p qirrali ta'sirga ega bo'ladi: ham talabani mashg'ul qiluvchi jonli ta'lim vositasi, ham talaba alohida xatti-harakatlarining kuchli motivi, ham talabaning yo'nalishini belgilaydigan qat'iy shaxsiy fazilat kabi ta'sir darajalariga ega bo'ladi" [6.53].

Motivlar didaktik jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchidir. Harakatlantiruvchi motivlarni o'rganish, to'g'ri qo'llash va uni to'g'ri yo'naltira olish pedagogik faoliyat mazmunining asosiy mohiyatini belgilaydi.

Motiv va uning nazariy mazmun-mohiyati yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ilmiy adabiyotlarda motivga turli ta'riflar keltirilgan bo'lib, ular quyidagicha:

Motiv: 1) insonni o'qishga yoki muayyan harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi; 2) o'quvchining ma'lum ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyilligi.

Motiv – insonni o'qishga yoki biror harakatlarni bajarishga undovchi turli sabablar yig'indisi. Salbiy motiv – bu majburlab o'qitish, lekin bunda o'quvchining o'qishga nisbatan qarshiligi hamma harakatlarimizni yo'qqa chiqaradi.



Motiv – bu ma'lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog'liq faoliyatga moyillik.

Motiv (lot. moveo – harakatlantiraman, fransuz. motif – undovchi sabab) shaxsni aqliy harakatga va xulq-atvorni amalga oshirishga undovchi, muayyan ehtiyojlarini qondirish bilan uzviy bog'liq mayl yoki sababi-yatdir [4.490]. Motivlarning asosiy funksiyasi insonni harakatga undovchi sabablar, ichki turtkilar vazifasidan iborat.

M.H. Saidov va boshqalar tomonidan tuzilgan "Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug'at" kitobida motivga quyidagicha ta'rif beriladi:

Motiv (lot. harakatga keltirish, turtki) – subyekt ehtiyojini qondirish bilan bog'liq faoliyatga undash; subyekt faolligini yuzaga chiqaruvchi va uning yo'nalishini belgilovchi tashqi yoki ichki shartlar majmui [5.190].

Motiv – narsa faoliyati yo'nalishini tanlashga rag'batlantiruvchi va uni belgilovchi, shuning uchun mavjud bo'luvchi omildir. Motiv – shaxsning harakatlari va xulq-atvorlarini tanlashi asosida yotuvchi idroklangan sababdir [3.46].

Psixologiyada motivga izlanuvchi faollik jarayonida ehtiyojlarning amalga oshishi sifatida qaraladi. Motivning rivojlanishi narsa mohiyatini o'zgartiruvchi faoliyatlar doirasini o'zgartirish va kengaytirish orqali yuz beradi.

Sotsiologiyada motivga muayyan ne'matlarga, faoliyatning xohlagan sharoitlariga erishishda idroklangan ehtiyoj deb qaraladi.

"Motivlash" (frans. qo'zg'atish) organizm faolligini uyg'otuvchi va uning yo'nalishini belgilovchi turtki, motivlovchi omillarning nisbati mustaqil 3 sinfga farqlanadi. Faollik manbai bo'lib ehtiyoj va instinktlar hisoblanadi.

Motiv – grekcha so'z bo'lib, "movere" – siljitish, harakatga keltirish, ehtiyojga yo'naltirish ma'nosini beradi. Motiv kishining ma'lum ehtiyojlarni qondirish uchun asos bo'ladigan ichki faoliyat mazmunidir [2.320].

Q. Turg'unovning "Ruscha-o'zbekcha psixologiya terminlarining izohli lug'ati"da motiv (lat. moveo – harakatlantiraman) odamni muayyan xatti-harakatlarga undaydigan bosh sabab sifatida ko'rsatiladi. Motiv alohida harakatlarga undab, bu harakatning maqsadi bilan bevosita mos keladi. Ko'pincha murakkab faoliyatda motiv harakat maqsadiga bevosita mos kelmaydi, bir maqsadni amalga oshirish uchun bir qancha harakatlarni bajarishga to'g'ri keladi, deb ta'rif beriladi.

Motivlar shaxs faolligini, uning faoliyatini boshqarib turuvchi, tartibga soluvchi muhim omil sifatida qadimdan olimlarimizni qiziqitirib kelgan. Buyuk mutafakkirlarimizning asarlarida ham inson va uning ruhiyati, kechinmalari, maqsadli faoliyatlari yuzasidan qarashlar bayon etilgan.

Inson faoliyati asosida turli-tuman maqsadlar yotadi. Maqsadlarni esa ma'lum ehtiyojlar yuzaga keltiradi. Ana shu jarayonlar, unda insonga nisbatan inson omilining ta'siri Sharq mutafakkirlari asarlarida o'z aksini topgan.

Zokirjon Mulla Xolmuhammad o'g'li Furqat (1858-1909) ta'lim berishda faqatgina kitob va boshqa o'quv qurollarigagina emas, balki qo'shimcha texnik vositalardan foydalanishning samarasi haqida quyidagicha bayon etadi: "... kamina Zokirjon Furqat va Hoji Zuhur ul gimnaziyani ko'rib tomosha qildik. Daf'ai avval janobi mazkur takliflari bilan gimnaziyaga kirib, omonlashib, marhamat aylab, o'zlari yo'l boshlab sobiqan ilm xosiyati birla bino bo'lg'on hikmatxonadagi asbob va otlarni ko'rsatdilar. Aning tomoshasida bizlarga ko'p xayriyatlar yuzlandi va aqlimiz lol bo'ldi. Gustoxlik yuzidin ba'zi ashyo va asboblarni so'raduk, haqiqatini bayon qilib tushuntirdilar... Mazkur shogirdlarni zehnini ochmoqqa darsxonalarga batadrij intiqol qildirub, ta'lim berur ekanlar" [2.301].

Samarqand pedagogika muhitining yorqin namoyandalari biri Saidahmad Hasanxo'ja o'g'li Siddiqiy (1864-1927)ning pedagogik faoliyatiga chuqur nazar solinsa, shu narsa alohida ko'zga tashlanadiki, u eski maktab ta'lim-tarbiya uslubining eng ilg'or tomonlarini qabul etgan holda, masalan, kerakli ma'lumotni yod olish, keyin uni izohlab bera olish, o'quv va tarbiya ishiga ongli yondashuv asosida qurishga harakat qilgan. U mashg'ulotlarni qat'iy jadval asosida o'zbek, rus va tojik tillarida olib borgan. Tabiatshunoslik, geografiya darslari tabiat qo'ynida o'tkazilgan, bu mashg'ulotlar davomida o'qituvchi o'z shogirdlariga olam sirlari va ularni egallashlari lozimligi haqida qiziqarli tarzda hikoyalar qilib bergan.

Kishilarning bilimi, ilmi, amaliy malakalari rivojisiz jamiyat taraqqiyotini tasavvur etib bo'lmaydi. Muayyan ma'naviy ehtiyojlarga, yuksak axloqiy fazilatlariga ega bo'lmagan kishilarda ilm-fanni o'rganishga, halol mehnat qilib, kasb-hunar egallashga, malaka oshirishga ishtiyoq ham bo'lmaydi. Shu sababli jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida avval yoshlarni tarbiyalab, ya'ni ularda ta'limga bo'lgan ishtiyoq va qiziqishlarni tarkib toptirib, keyin ularga ta'lim berganlar.

Haqiqatan ham, bilimga, ilmga ehtiyoj anglangan motivlar tizimidir. Ularni ta'lim oluvchilarda tarkib toptirish va rivojlantirish muammolari Sharq allomalarining asarlarida ilmiy asoslab berilgan.

Motivlar shaxs faolligini boshqarib turuvchi, tartibga soluvchi muhim omil sifatida G'arb olimlari e'tiborini tortib kelgan. Bugungi kungacha psixologiya fanida motivning mohiyati xususida juda xilma-xil ta'riflar keltirilib o'tiladi, jumladan, xohishlar, tasavvurlar, g'oyalar, kechinmalar (L.I. Bojovich), ehtiyojlar, hissiyotlar, moyilliklar



(X. Xekxaufen), istak-xohish, odatlar, fikrlar, psixik jarayonlar, shaxsning o'ziga xos xususiyatlari (K.K. Platonov), tashqi olam predmetlari (A.N. Leontiev), ko'rsatmalar (A. Maslou), bevosita harakatlarini belgilab beruvchi hissiyotlar (V.S. Merlin), shaxsning faoliyati sohasidagi mushohadaliligi (J. Godfrua) kabi.

Bundan tashqari, motiv va motivatsiya bilan bog'liq muammolar xorij psixologlaridan E. Torndayk, U. Makdaugoll, J. Bruner, D. Atkinson, A. Maslou, G. Ollport, X. Xekxaufen, G. Rozenfeld tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Yan Amos Komenskiy (1592-1670)ning "Buyuk didaktika" asari jahon pedagogikasining nodir asarlaridan biridir. Komenskiy o'z asarlarida o'quvchilardagi o'qishga qiziqishni ularning bilimni o'zlashtirishlari uchun zaruriy shart hisoblanishini ta'kidlaydi. U barcha vositalar bilan o'quvchilarda bilim olish ishtiyoqini uyg'otishni taklif etadi va shu masala yuzasidan ko'rsatmalar beradi: o'quvchilarga o'rganilayotgan materiallarning ahamiyatini, egallagan bilimlarning mohiyatini tushuntirish lozim, ularni rag'batlantirish, mashg'ulotning qiziqarli bo'lishiga harakat qilinishi lozim.

Ta'lim tizimida mavjud bo'lgan motivlarni turli mezonlarga ko'ra tasnif etish mumkin. Turiga ko'ra ijtimoiy va biluv motivlari farqlanadi. Darajasiga ko'ra esa motivlar quyidagilarga bo'linadi:

1. Keng ijtimoiy motivlar (burch, mas'uliyat, o'qishning ijtimoiy ahamiyatini tushunish). Eng avvalo, bu shaxsning o'qish orqali o'zining jamiyatdagi ijtimoiy mavqeini tasdiqlashi bilan belgilanadi.
2. Tor ijtimoiy yoki pozitsiyali motivlar (kelajakda muayyan kasb-korni egallashga, atrofdagilarning e'tiboriga tushishga, o'z mehnatiga yarasha munosib taqdirlanishga bo'lgan intilish).
3. Ijtimoiy hamkorlik motivlari (atrofdagilar bilan turli ko'rinishdagi o'zaro hamkorlik qilishga, sinf jamoasi orasida o'z pozitsiyasi va o'rnini belgilashga intilish).
4. Keng biluv motivlari. Eruditsiyaga ko'ra yo'nalish olish, ta'lim jarayoni va uning natijalaridan qoniqish hissi bilan belgilanadi. Kishining o'quv-biluv faoliyati uning hayot faoliyatida yetakchi o'rin egallaydi.
5. O'quv-biluv motivlari (bilimlarni egallash usullari, muayyan o'quv predmetlarini o'zlashtirishga yo'nalganlik).
6. Mustaqil ta'lim motivlari (qo'shimcha bilimlarni egallashga yo'nalganlik).

Amaliy pedagogikada bu motivlar yo'nalishi va mazmuniga ko'ra alohida guruhlariga birlashtiriladi:

- ijtimoiy (ijtimoiy qimmatga ega) motivlar;
- biluv motivlari;
- kasbiy ahamiyatga molik motivlar;
- estetik motivlar;
- kommunikativ motivlar;
- mavqe-pozitsiyali motivlar;
- tarixiy-an'anaviy motivlar;
- utilitar-amaliy motivlar.

Aniqlanishicha: a) jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida o'quvchilar o'quv motivlarining u yoki bu guruhlari yetakchilik qiladi; b) motivlar guruhlari o'zaro dinamik bog'liq holda muayyan shart-sharoitlarga ko'ra amal qiladi. Ana shu bog'lanishga ko'ra o'qishning, ya'ni o'quv-biluv faoliyatining harakatlantiruvchi kuchi degan tushuncha paydo bo'ladiki, uning xarakteri, yo'nalganligi va ko'lamli motivlarning mujassam ta'siriga ko'ra belgilanadi.

Turli xildagi motivlar didaktik jarayonlarning kechishi va natijalariga turlicha ta'sir ko'rsatadi. Masalan, keng biluv motivlari ko'proq ta'lim mazmunini qamrab olishga intilishda namoyon bo'ladi, ammo, shunga qaramay, bu motivlar o'quv-biluv motivlariga nisbatan kuchsiz bo'ladi. Chunki o'quv-biluv motivlari tor sohada mustaqil faoliyat yuritishga stimuly beruvchi eng yaxshi vosita bo'lib hisoblanadi. Raqobatchilik muhitida esa ko'proq utilitar-amaliy motivlar hukmronlik qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, maktab o'quvchilari motivlarini maqsadga yo'naltirilgan xatti-harakatlar asosida yotuvchi qo'zg'otuvchi hamda umumahamiyatga molik bo'lgan qadriyatlarni shaxsiy qadriyatlar darajasiga olib chiqadigan mohiyat kasb etuvchi motivlar singari turlarga ajratish mumkin.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish joizki, talabalar o'quv-biluv faoliyati ijtimoiy-didaktik xarakterga ega bo'lib, o'ziga xos motiv va maqsadlarga ko'ra boshqariladigan hamda ta'lim vositalari yordamida shakllanadigan faoliyatdir.

1. O'quv-biluv faoliyati ikki tarmoqli pedagogik hodisa bo'lib, u bir tomondan kattalarga ergashish, ikkinchi tomondan esa o'rganilayotgan o'quv materiallarining yangi-yangi qirralarini ochish, bilim va faoliyat usullarini yangi sharoitlarga ko'chirish bilan tavsiflanadi.
2. O'quv-biluv faoliyati tizim sifatida motiv, maqsad, vosita va natijadan iborat. O'quv-biluv faoliyati tarkibining har biri pedagogik qimmatga ega, ya'ni motivlar faoliyatga yo'naltirish, o'quv maqsadlari erishiladigan natijani oldindan tasavvur etish, vosita faoliyatni amalga oshirish, natija esa yangi maqsadlar qo'yib, ularga erishish omili hisoblanadi.
3. Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarida o'quv-biluv faoliyatini motivatsiyalashtirish o'quv materiali bilan uyg'unlashganda namoyon bo'ladi. Bu tizimda o'quv materiali faoliyat predmeti sifatida qatnashadi. O'quv-biluv faoliyati ta'siridan o'quv materiali bir – o'rganilmagan – holatdan ikkinchi – o'rganilgan – holatga o'tadi. O'quv materiali ta'sirida talabalarda bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy faoliyat tarkib topadi. O'quv materialining ta'lim-tarbiyaviy qimmatini oshirish, uning talabalarga mos bo'lishi uchun u turli shakllarda bayon qilinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 16-fevraldagi "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 25-sonli qarori: <https://lex.uz/uz/docs/-973504>
2. Abdullayeva M. va boshqalar. Falsafa: ensiklopedik lug'at. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2010-yil, 344 b.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2006. – 132 b.
4. Психология. Словарь / Под общ. ред. А.В. Петровского, М.Г. Ярошевского. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Политиздат, 1990. – 494 с.
5. Saidov M.H. Ijtimoiy himoya: atamalar izohli lug'at. – Toshkent, 2007. – 196 b.
6. Щукина Г.И. Проблема познавательного интереса в педагогике. – М., 1971. – С. 53–54.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.